Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2026-yil yanvar-sentabr oylari uchun

I. Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

I. Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026-yilning 1-oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 17,8 mingtani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi[1]




1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar birxillashtirildi

Tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2025- yil 1- oktabr holatiga, birlik	2026-yil 1- oktabr holatiga, birlik
Jizzax viloyati	**16 677**	**17 849**
Jizzax sh.	4 469	4 566
tumanlar:		
Arnasoy	576	1 157
Baxmal	1 140	1 354
G'allaorol	1 563	1 520
Sharof Rashidov	2 256	2 865
Do'stlik	661	533
Zomin	1 430	1 493
Zarbdor	869	870
Zafarobod	498	624
Mirzacho'l	614	547
Paxtakor	883	808
Forish	1 292	1 105
Yangiobod	426	407

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2026- yilning yanvar- sentabrida 3 522 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

2026- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 893 ta,savdo sohasida 1 178 ta,sanoatda 303 tani tashkil etgan.

Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


	2025- yil 1- oktabr holatiga, birlik	**2026-yil 1- oktabr holatiga, birlik**
Jizzax viloyati	2 705	**3 522**
Jizzax sh.	611	633
tumanlar:		
Arnasoy	285	577
Baxmal	171	255
G'allaorol	269	248
Sharof Rashidov	415	535
Do'stlik	108	73
Zomin	214	211
Zarbdor	129	173
Zafarobod	106	346
Mirzacho'l	73	126
Paxtakor	130	136
Forish	113	134
Yangiobod	81	75

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi

2026- yilning yanvar-sentabrida YAIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 72,0 % ni tashkil qilib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan -0,5 foizga kamaydi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi

2026- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 39,3 %, xizmatlar sohasida – 33,6 % va sanoatda – 20,6 % ,qurilishda – 7,3 %, ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2026-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 12 949,0 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 32,5 % ini tashkil etdi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2026- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 7 965,3 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 86,5 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 129,7% ni tashkil qildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2026- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 16 323,4 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 77,0% ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 112,7 % ni tashkil qildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2026- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 32 785,8 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 93,2 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 103,4 % ni tashkil qildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2026- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 8 572,0 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 73,0 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 117,8% ni tashkil qildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2026- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning ximatlar sohasidagi hajmi 15 015,3 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 67,0 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 113,7 % ni tashkil qildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2026- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 125,6 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 68,7 % ini tashkil etdi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2026- yilning yanvar-sentabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 187,7 mln AQSH dollarini yoki jami importning 15,4 % ini tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) importi hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV.Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2026- yilning yanvar-sentabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,3 % ni tashkil etdi. 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,9 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-sentabrida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 96,7 % ni tashkil etgan bo'lib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,9 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-sentabrida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,3 % ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,8 % ni tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-sentabrida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,2 % ni tashkil etib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,5 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi



Tayyorlash uchun mas'ul:	**Ijrochi:**	**Manzil:**
Tadbirkorlik subyektlarini kuzatuv bo'limi	D.Pardayev 72 221-51-02 (2530)	Jizzax viloyati Statistika boshqarmasi